

FOLKLOR MATNLARINING LINGVOSTATISTIKASI TADQIQOTLARI TAHLILI

Qodirova Gulnoza,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Jizzax akademik litseyi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.016>

Annatsiya. Maqolada xalq og'zaki ijodi namunalariga bag'ishlangan leksikografik kuzatishlar tahlil etilgan. Ularning yutuq va kamchiliklari va tilshunosligimizdagi o'rni xolisona baholangan. Shuningdek, o'zbek leksikografiyasida navbatdagi bajariladigan vazifalar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvostatistika, adabiy til, doston, matn, lug'at, chastotali lug'at, alfavitli lug'at, frazeologizm, konkordans, kompyuter, janr.

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ЛИНГВИСТИКИ ФОЛЬКЛОРНЫХ ТЕКСТОВ

Кадирова Гульноза,

преподаватель Джизакского академического лицея Министерство внутренних дел

Республики Узбекистан.

Аннотация. В статье анализируются лексикографические наблюдения на примерах народного творчества. Объективно оцениваются их достижения и недостатки, их место в нашем языкознании. Также обозначены дальнейшие задачи, которые предстоит решить по узбекской лексикографии.

Ключевые слова: лингвистическая статистика, литературный язык, эпос, текст, словарь, частотный словарь, алфавитный словарь, фразеология, конкорданс, компьютер, жанр.

ANALYSIS OF RESEARCH IN LINGUISTICS OF FOLK TEXTS

Kadirova Gulnoza,

teacher of the Jizzakh Academic Lyceum Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

Annotation. The article analyzes lexicographical observations on examples of folk art. Their achievements and shortcomings and their place in our linguistics are objectively evaluated. Further tasks to be performed in Uzbek lexicography are also indicated.

Key words: linguistic statistics, literary language, epic, text, dictionary, frequency dictionary, alphabetic dictionary, phraseology, concordance, computer, genre.

Xalq og'zaki ijodi namunalari ham leksikografik kuzatishlar ob'ekti bo'lganligi bois filologiyamizda matnlar lingvostatistikasiga bag'ishlangan bir qator kuzatishlar yuzaga kelganligini ta'kidlash joiz. Ular orasida T.Mirzaev, J.Eshonqul, S.Fidokorlarning «Alpomish» dostonining izohli lug'ati (2007), D.O'rinboevaning «O'zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug'ati» (2006), D.O'rinboeva va U.Umurzoqovning «O'zbek xalq dostonlari tilining alfavit-chastotali lug'ati» (2006), B.Yo'ldoshev, D.O'rinboevaning «O'zbek xalq dostonlarining chastotali-izohli frazeologik lug'ati» (2008), B.O'rinboev, K.Bozorboevning «Alpomish» dostoni frazeologizmlarining ta'biri (1998), G.Jumanazarovanning «Fozil Yo'ldosh o'g'li «Shirin bilan Shakar» dostonining izohli lug'ati» (2007) singari ishlarni tilga olish mumkin. So'nggi yillarda amalga oshirilgan G.Jumanazarova va H.Hamdamovanning «Rustamxon», N.Xojimusaevaning «Orzugul» dostonlari bo'yicha amalga oshirilgan leksikografik lug'atlarini ham mazkur ro'yxatga kiritsa bo'ladi.

T.Mirzaev, J.Eshonqul, S.Fidokorning «Alpomish» dostonining izohli lug'ati (2007) dostonida qo'llanilgan, ammo adabiy tilimizda kam uchraydigan yoki umuman uchramaydigan, ayrim ma'nolari unutilgan birliklarning izohi keltirilgan. Muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bu leksikografik tadqiqotda 1157 ta so'zning izohi berilgan. Xuddi ana shu tartibdagi izohli lug'atlar o'zbek xalq dostonlarining har biri asosida yaratilishi lozim, degan fikrda bo'lgan G.Jumanazarova ham Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan aytilgan «Shirin bilan Shakar» dostonining izohli lug'atini tuzgan (2007) va bu lug'at 311 ta so'zning izohini o'z ichiga olgan.

Tilshunosligimizda o'zbek lug'atchiligi va uni amalga oshirishda kompyuter dasturlaridan foydalangan D.O'rinboeva salmoqli ishlar qilgan. U xalq dostonlari matnini lingvostatistik tahlil etish

va shu asosda lug'atlar tartib berish ishini birinchi bo'lib amalga oshirgan, ularning natijasi o'laroq ikkita lug'at nashr etgan[2]. Mazkur olimaning «O'zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug'ati» uchun «Alpomish», «Ravshan», «Rustamxon» dostonlari matni material vazifasini o'tagan. Ushbu matnlar asosida kompyuter ko'magida 28499 marta qo'llangan 19274 ta lug'aviy birliklarni qamrab olgan so'zshakllardan iborat har bir dostonning alohida chastotali va alfavitli-chastotali lug'atlari tuzilgan. Lug'atda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, «Alpomish» 14029, «Ravshan» 7059, «Rustamxon» 7411 so'zshakllardan tashkil topgan.

D.O'rinboevaning U.Umurzoqov bilan hamkorlikda tuzgan «O'zbek xalq dostonlari tilining alfavit-chastotali lug'ati» avvalgi lug'atlardan birmuncha farqlanadi: so'zshakllar chastota tartibida, ya'ni avval eng ko'p qo'llangan elementlar, davomida undan kam qo'llanganlarini keltirish tartibida emas, balki har uch dostondagi so'zshakllar alfavit tartibida va bir vaqtning o'zida chastotasi ko'rsatilgan holda keltirilgan. So'zshakllarning bu tartibda berilishi har bir tadqiqotchiga foydalanish uchun qulaylik tug'diradi va ularning uch doston misolida qiyoslash imkonini beradi. Ushbu lug'atning yana bir ilmiy jihati «Alpomish» va «Ravshan» dostonlarida qo'llanilgan so'zshakllarning so'z turkumlari kesimida berilganligidir. Masalan, ularda ot: 1597 (11,4%), 1359 (19,2%); sifat 425 (3,02%), 245 (3,4%); son 54 (0,4%), 28 (0,4%); olmosh 17 (0,1%), 20 (0,28%); ravish 266 (1,9%), 238 (3,3%); fe'l 1399 (9,9%), 1100 (15,5%) nisbatda qo'llanilganligi aniqlangan. Ushbu raqamlar miqdori mustaqil so'zlarning «Ravshan» dostonida qo'llanishi «Alpomish» matnidagiga qaraganda faol ekanligi haqidagi xulosaga olib kelgan. Shuningdek, xalq dostonlari tilida ot va fe'lning qo'llanish chastotasi ustuvorligi, qo'llanish koeffitsenti nuqtai nazaridan esa olmosh eng yuqori o'rinda («Alpomish»da bu – 1069, shu – 182, men – 425, mening – 243; «Ravshan»da bu – 139, shu – 137, men – 108, olib – 176 va 108, kelib – 224 va 57, aytdi – 158 va 56, bo'lsa – 249 va 77, bo'ladi – 243 va 76) va atoqli otlar (Qorajon – 289, Alpomish – 264, Ravshanbek – 104, Hasan – 211, Zulxumor - 83) ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turganligi aniqlangan.

Dostonlar matnida qo'llangan so'zlar chastotasi miqdori yuqorida S.Rizaev va boshqalar tomonidan aytilgan fikr-mulohazalarni tasdiqlaydi. Bu dostonlar matnida ham bir martalik so'zlar yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan. Masalan, «Alpomish»da – 7476 va 53,3%, «Ravshan»da – 4303 va 60,9%. Shuningdek, 1dan 10gacha bo'lgan so'zlar – 5262 (37,5%) va 2388 (33,8); 10dan 90gacha – 1179 (8,4%) va 319 (4,5%); 90dan 1000gacha – 112 (0,79%) va 14 (0,19)ni tashkil qilgan. Bir martadan qo'llangan so'zlarning asosiy qismini ot va fe'llar tashkil etgan.

So'nggi yillarda matnlarga leksikografik ishlov berishdek mashaqqatli bir yumushga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishitilshunoslik muammolarini hal etish sohasida erishilgan yutuqlarining muhim omili bo'la oladi. Mantshunoslik va lug'atshunoslik yo'nalishlarida qo'lda bajarishga majbur bo'lingan ko'plab ishlarni bugun zamonaviy kompyuter yordamida tez va aniq ado etish har bir tadqiqotchilarning bu boradagi vazifalarini oson qildi, yaratilgan ilmiy ishlar sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'min etdi.

B.Yo'ldoshev, D.O'rinboevaning «O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati»[3] tilshunosligimizda yaratilgan folklor asarlari tilining, xususan, frazeologik lug'atining dastlabki tajribadagi ilk namunasidir. Lug'atni yaratishda mualliflar Fozil shoirning «Alpomish», «Rustam» va Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Ravshan dostonlari matnini (jami: 28499 ta so'zshaklni) asos qilib olgan. Har bir dostonning umumiy matn hajmi xilma-xil: «Alpomish»da – 14029, ya'ni 49,2%, «Ravshan» dostoni – 7059, ya'ni 24,7%, «Rustam» dostoni – 7411 so'zshakli 26,2% miqdorni tashkil etadi. Matnlarni qayta tekshirish jarayonida mualliflarning jami 1041 ta frazeologik birliklar qo'llanilganligini, ular xalq dostonlari matnida 1641 marta qaytarilganligini aniqlaganlar. Mualliflardan birining axborot berishicha, «Alpomish» dostonida qaytalanish chastotasi 2007 so'zshakl bo'lib, umumiy tanlanma hajmining 14% ni, «Ravshan» dostonida 534 so'zshakli umumiy tanlanma hajmining 7,5% ni, «Rustam» dostonida 647 so'z shakli umumiy tanlanma hajmining 8,7% ni tashkil etadi[6].

Lug'at mualliflarining yutug'i shundaki, tanlangan dostonlardagi frazeologik birliklarning natijalarini Sh.Rahmatullaevning lug'ati[5] bilan solishtiradi, faqat uchta doston matnida qo'llanilgan 189 ta iboralarning ta'kidlangan lug'atda uchramaganligini aniqlaydi. Tuzilishiga ko'ra ikki qismdan iborat bo'lgan bu lug'atning dastlabki qismida o'zbek xalq dostonlari matnidagi frazeologizmlarning qo'llanish chastotasi qiyosiy yo'nalishda alifbo tartibida berilgan bo'lsa, keyingi qismda dostonlar matnidagi frazeologizmlarning qisqacha izohli lug'ati o'rin olgan. Tabiiyki, frazeologik birliklarning lingvostatistik aspektda tadqiq etilishi folklor tili bilan bog'liq bo'lgan barcha nazariy va amaliy masalalarni hal etishda bu lug'atning ahamiyati juda katta.

So‘nggi yillarda D.O‘rinboeva o‘zbek xalq og‘zaki ijodining to‘rtta mustaqil janrlari (ertak, topishmoq, masal va qo‘shiq)ga oid namunalarining matnlarini tanlab olib kompyuter xotirasiga kiritdi va ularning salmoqdor qiyosiy, chastotali lug‘atini[6] yaratdi. Unga “O‘zbek xalq ertaklari” (I tom, T., 2007); Topishmoqlar (T., 1981); O‘zbek xalq maqollari (T., 2005); Boychechak (T., 1984) kabi folklor namunalari tahlil ob‘ektiga jalb etilgan. Tahlil jarayonida jami 46329 so‘zshaklning statistikasini o‘rgangan. Matnlar tahlilida ertak janrining umumiy matn hajmi – 14837, qaytalanishi – 77304, ya‘ni 24,7% ni; qo‘shiq janrining 10692 so‘zshakli qaytalanishi – 31858, ya‘ni 27,6% ni; topishmoq janrining umumiy matn hajmi 8569, qaytalanishi 27334, ya‘ni 23,5% ni; maqol janrining umumiy matn hajmi – 12231, qaytalanishi – 45132, ya‘ni 27,5% ni tashkil qilishi aniqlangan. Jami to‘rt folklor janrining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan mazkur lug‘atda matnlarning so‘zshakllarining qo‘llanish chastotasi qiyosiy-chog‘ishtirma tarzda alifbo tartibida keltirilgan. Biz nazarda tutayotgan ushbu lug‘at folklor matnlari lingvostatistikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar qatoridagi eng salmoqli, ob‘ektiga ko‘ra keng qamrovli, ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etganligi bilan boshqalardan tubdan ajralib turadi.

G.Jumanazarova va H.Hamdamovalarning lug‘ati Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Rustamxon” dostoni matni asosida yaratilgan bo‘lib, u to‘rt qismdan – so‘zlik, alfavitli, chastotali va ters lug‘atlardan iborat. Mazkur lug‘atda birato‘la so‘zlar chastotasining va ters holatining berilishi ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Undan xalq baxshisi uslubi uchun xarakterli bo‘lgan so‘zlarni aniqlash mumkin bo‘ladi. So‘zlik kompyuter yordamida tuzilganligi sababli bu borada mualliflar yuqori darajadagi aniqlikka erishgan, deb aytish mumkin[7].

O‘zbek leksikografiyasi yuqorida ta‘kidlangan an‘analar va bu borada bajarilgan vazifalarning salmoqli bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi paytda olib borilayotgan ishlar natijalari talablar darajasida emas. Xususan, bu o‘rinda badiiy adabiyotlar tilini olaylik. Badiiy matn ilmiy va rasmiy matnlardan tubdan farq qiladiki, uni eng yuqori maqomdagi, ya‘ni badiiy estetik vazifani bajarishdagi o‘ziga xos maydon, lisoniy me‘yor sifatida qarash mumkin. Buning tub sababi shundaki, badiiy matnda ta‘kidlangan vazifani amalga oshirishga qaratilgan umumxalq tilidagi barcha lingvistik vositalarning ishtirok etganligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Shu boisdan ham xilma-xil davrlarda rivojlangan mo‘tabar adabiyotimiz sahifalaridagi muayyan shoir va yozuvchilarning asarlari matni lisoniy material sifatida nafaqat ona tilimiz rivojlanishi va taraqqiyoti, balki har bir ijodkor uslubiga xos bo‘lgan kuzatishlarni aytish, bu borada muayyan ilmiy xulosalarga kelish uchun asosiy va birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi, albatta.

Ayrim tilshunos olimlarning: “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining chastotali lug‘atini yaratish juda murakkab muammo sanaladi, shuning uchun hozirgi kunga qadar tilimizning to‘la chastotali lug‘ati yaratilganicha yo‘q. Bu maummoni hal qilish uchun, eng avvalo, umummilliy adabiy tilning barcha, asosiy uslublari (ilmiy, badiiy, so‘zlashuv, rasmiy, publitsistik kabilarni), janrlarni (vaqtlı matbuot, badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodiyoti, jonli so‘zlashuv tili kabilarni) statistik metodda to‘liq o‘rganib chiqilishi asosida yuqori chastotali so‘zlarni, grammatik formalarni har bir uslub va janr bo‘yicha aniqlab olish lozim bo‘ladi. Ana shundan keyin o‘zbek adabiy tilining to‘la chastotali lug‘ati tuzish, uning chegarasi, tamoyillari haqida fikr yuritish mumkin”, degan ilmiy-nazariy mulohazalari muayyan asoslarga ega, deb hisoblaymiz. Ustoz-olimlarning ta‘kidlagan ko‘rsatmalari asosida ta‘kidlamochimiz: matnning lingvistik tahlilida leksikografik va statistik metodlarga tayanib ish ko‘rish, ayniqsa, yozuvchilik leksikografiyasi bilan shug‘ullanish, bugungi o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turaveradi.

O‘zbek yozuvchilik leksikografiyasining tobora takomillashib borayotgani, sohaning o‘z mutaxassislari yetishib chiqayotganligi sababli bugun tilshunosligimiz har qanday davrda yaratilgan, har qanday ijodkorning qalamiga mansub bo‘lgan matnlarning elektron nusxalarini yaratish, ularni kompyuter xotirasiga kiritish va shu asosda turli xarakterdagi, masalan, alfavitli, chastotali, konkordans, hatto ters lug‘atlar tuzish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Ana shunday lug‘atlarga asoslanib olib borilgan lingvistik tadqiqotlarning ma‘lum davr tili to‘g‘risida, alohida olingan shoir yoki yozuvchining tili va uslubi, tildan foydalanishdagi mahorati haqida aniq xulosalar berishga shubha yo‘q. Buning ustiga bu kabi leksikografik kuzatishlar matnlar ustida nafaqat lingvostatistik, balki qiyosiy tadqiqotlar olib borishda ham nihoyatda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Зевархон // Бахром ва Гуландом. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

O‘rinboeva D. O‘zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug‘ati. – Toshkent, O‘zME, 2006;

В. Yo'ldoshev, D. O'rinboyeva. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. – T: O'zME, 2008. 100-bet.

Ўринбоева Д. Достонлар тилида фразеологик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2007, №6. – 87-90-бетлар.

Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 408-бет.

Ўринбоева Д. “Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг қисий частотали луғати”. Самарқанд, СамДУ нашри, 2017.

Жуманазарова Г., Ҳамдамова Ҳ. “Рустамхон” достони тилининг луғатлари. Жиззах, 2021, 485-бет.